Magniy – suyak tarkibiga kiradi, ATF –aza gidroliz fermentlari va sh.j miozinli fermentlar faolligini oshiradi va shuning uchun ham muskullar qisqarishida eng zarur unsur hisoblanadi. Magniy immunoglobunlar biosintezini faollashtirish oraqali organizmning himoya funksiyasini kuchaytiradi. Magniyning ikki valentli musbat ionlari fosforilaza, yenolaza, pentidaza va karboksilaza fermentlarining faolligini stimullaydi. Qon hujayralari tarkibida 3 mg % gacha, plazmada – 1,8-3,2 mg gacha magniy bo'ladi. Magniy ingichka ichakda so'riladi, ichak va buyraklar orqali organizmdan chiqib ketadi.

Fosfor – organizmda kechadigan modda almashinuvining barcha turi fosfor kislatosining o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq. Fosforning 80-85 % i suyak to'qimasida to'planadi. Fosfor nuklein kislotalar tarkibiga kiradi, fosforlanish oqibatida ichak adsorbsiyasi, glikoliz, uglevodlarning to'g'ridan – to'g'ri oksidlanish, lipidlar transporti, aminokislotalar almashinuvi va vaxokozolar amalga oshadi. Makroergik fosforli birikmalar (ATF) energiya

donatori va akkumulyatorlari hisoblanadi. Qon tarikbida fosfor anorganik va organik shakllarda uchraydi. Organik fosfor oqsillar va lipidlar bilan birikgan holda bo'ladi. Odam va hayvonlar qonida fosforning 10 dan ortiq fraksiyasi mavjud.

Kalsiotonin – bir zanjirli polipeptid molekulyar massasi 4500, 32 ta aminokislota qoldig'idan iborat. Qondagi kalsiy miqdori ko'paygan paytda kalsiotonin gormonining qonga tusha boshlashi ro'y beradi va organizmda kalsiy gomeostazi ta'minlanadi. Kalsiotonin paratgormonga teskari holda ta'sir etadi kalsiyning qondagi miqdorini kamaytiradi. Kalsiotonin sekrisiyasi oshqozon osti bezining gormoni glyukogon va oshqozon – ichak yo'lining gormoni gastrin ham ishtirok etadi va bu jarayonni stimullaydi.

1-jadval

Sog'lom hayvonlar qonidagi makroma'danlar almashinuvining ko'rsatgichlari.

Ko'rsatgichlar	O'lchov birligi	Hayvon turi				
		Qoramol	Qo'y	Cho'chqa	Ot	Tovuq
Umumiy kalsiy	Mg %	10-12,5	10-12,5	10-14	10-14	8-12
	Mmol/l	2,5-3,13	2,5-3,13	2,5-3,5	2,5-3,5	2-3
Anorganik	Mg %	4,5-6	4,5-6	4-6	4,2-5,5	5,5-7,5

fosfor	Mmol/l	1,45-1,94	1,45-1,94	1,29-1,94	1,35-1,78	1,78-2,42
Natriy	Mg %	320-340	320-340	320-340	310-350	350-380
	Mmol/l	139-148	139-148	139-148	135-143	152-165
Magniy	Mg %	2-3	2-3	2,5-3,5	2-3,5	2-3
	Mmol/l	0,82-1,23	0,82-1,23	1,03-1,44	0,82-1,44	0,82-1,23
Kaliy	Mg %	16-19	16-19	16-19	19-22	19-23
	Mmol/l	1,10-4,86	4,10-4,86	4,10-4,86	4,88-5,63	4,86-5,89

2-jadval

Hayvonlarning mikroma'danlarga bo'lgan talablari.

Ko'rsatgichlar	Sog'in sigirlar (1 o.b his.)			6 oylik	6 oylik	Bu'g'oz	Emiz.on
	Kuniga 10 l sut beruvchi	Kuniga 20 l sut beruvchi	Kuniga 30 l sut beruvchi	buzoqlar (tana vazni 120-130 kg, 1 kunda)	buzoqlar (tana vazni 200-220 kg, 1 kunda)	qorako'l sovliqlari (1 kunda)	a cho'chqa (150-160 kg, 1 kunda)

Osh tuzi, g	6,5-7,5	6,5-7,5	6,5-7,5	20	25	10	30
Kalsiy. G	6,5-7,5	6,5-7,5	6,5-7,5	25	35	10	45
Fosfor,g	4,5-5	4,5-5	4,5-5	15	20	5	35
Magniy	2,5-1,5	2,5-1,5	2,5-1,5	5	10	1	-
Kaliy, g	8-7	8-7	8-7	20	40	-	-
Oltingurgut, g	3,2	3,2	3,2	10	20	4,5	-

Osteodistrofiya (Ostedistrohia) – surunkali kasallik bo’lib, suyak to’qimasida ostemalyasiya, osteoporoz va osteofibrozo hozirgi distrofik o’zgarishlar bilan tavsiflanadi. Sababalariga ko’ra, alimentar, ikilamchi, va enzootik osteodistrofiyalar farqlanadi. Asosan yirik shoxli hayvonlar kasallanadi.

Sabablari. Alimentar osteodistrofiyaning kelib chiqishiga oziqalar bilan organizmga kalsiy va fosforning yetarli darajada tushmasligi hamda rasionla protein, uglevodlar va D vitamining yetishmasligi sabab bo’ladi. Bu holat ko’pincha silos – jom tipida boqilganda va omuxta yem, pichanlar miqdori yetarli bo’lmaganda kuzatiladi. Ratsiondagi silos, jom, barda kabi oziqalar miqdori ortiqcha va pichanlar miqdori yetishmaganda hayvonlarning kalsiy, fosfor, magniy, oltingurgut, yod, kobalt, rux, mis,

A,D, Ye vitaminlari hamda proteinga bo'lgan ehtiyojlari to'liq qondirilmaydi.

Rivojlanishi. Organizmda kalsiy, fosfor, uglevodlar va protiyenning ehtiyojlaridan kam miqdorda tushishi oqibatida suyak to'qimalarida assimiyasiya va dissimlyasiya jarayonlari izdan chiqadi. Osteomalyasiya, osteoporoz va osteofibrozo rivojlanadi.

Uglevodlar, oqsilli komponentlar, ma'danlar va vitaminlarning yetarli darajada tushmasligi oqibatida suyak to'qmasi organik moddasining hosil bo'lish jarayonlari, kollogen, mukopolisaharidlar sintezi izdan chiqadi. Suyak to'qmasi organik matrisasining kalsiy ionlari, fosfor va boshqa elementlar bilan to'yinishi, kristal gidroksilapatit turi shakllanishi jarayonlari buziladi.

Raxit paytida suyaklar egiluvchan bo'lsa, osteodistrofiya paytida sinuvchan bo'lib qoladi. D – vitaminni va uning metabolik faol turlarining yetishmasligi kalsiyni biriktiruvchi oqsillar setizining buzilishi, ozuqalar tarkibidagi kalsiy va fosfor hazimlanishni, ularni suyaklarga yetkazib berilishi va gidroksilapatit hosil bo'lishining yomonlashishiga sabab bo'ladi. A- vitaminning yetishmasligi oqibatida suyaklarda mukopolisaharidlar va oqsil – uglevod komponentlarining biosintezi izdan chiqadi. S vitaminining tanqisligi kollogen va kristallanish yadrosi sintezining buzilishiga olib keladi.

Belgilari. Shartli ravishda kasallikning uch bosqichi farqlanadi. Birinchi bosqichda teri qoplamasi va tuyoqlar yaltiroqliligining pasayishi, ishtahaning yomonlashishi va o'zgarishi, mahsuldorlikning kamayishi qayd etiladi. Hayvonlarda lizuxa kuzatilib, bir – birini, oxurlar va devorlarni yalaydi, to'shamalarini yeyishi mumkin. Bu bosqichda quzg'aluvchanlik kuchayib, muskullar taranglashadi. Shilliq pardalar oqaradi, ikkilamchi osteodistrofiyada esa kuchsiz sarg'ayish mumkin. kavsh qaytarish siyraklashgan, istar – istamas, oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniyasi, ba'zan qatqorinning qotishi, devorlarni yalashi oqibatida ich ketishi qayd etishi mumkin. tana harorati me'yorlar chegarasida bo'lib, klinik va qonning laborator ko'rsatgichlarda aydarlik o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Kasallikning ikkinchi bosqichida suyak tizimining hamda tog'ay va muskullarning jarohatlanish belgilari paydo bo'ladi. Harakat va o'rnidan turish paytida og'riq sezish, oqsash, bukchayib turish holati qayd etiladi.

Suyaklarning ma'dansizlanishi oqibatida umurtqa pag'onasi qiyshayadi, oxirgi qovurg'alar cho'kadi va yupqalashadi, oxirgi dum umurtqalari ingichkalashadi va suriladi. Quruq suyakning yupqalashishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi, bo'g'inlarning kattalashishi qayt etiladi. Ayniqsa alimantar osteodistrofiya paytida lizuxa kuchayadi. Kasal hayvon yog'och, tayoqlar, rezika, selofan kabilarni yutishga harakat qiladi, to'shamalarni ishtaha bilan iste'mol qiladi. Semizlik darajasi va mahsuldorlik keskin pasayadi. Ko'pincha suyaklarning sinishi qayd etiladi. Ko'krak qafasi

deformasiyaga uchraydi. Muskullarining qotishi, klonnik va tonik qaltiroq, ayrim hollarda muskullar falaji, yurak urushi sonining bir daqiqada 60-80 nafas sonining 40 martagacha yetishi, katta qorin devori harakatining 2 daqiqada 3 martadan oshmasligi harakterli bo'ladi.

Kasallikning uchunchi bosqich suyaklarining jiddiy o'zgarishlari. Gavdaning bukchayib turishi, oyoqlarning qiyshayishi, lordoz yoki kifoz, kuchli oriqlash harakterli bo'ladi. Kasal hayvon ko'pincha yotadi, o'rnidan qiyinchilik bilan turadi, sekin harakatlanadi.

Patologoanatomik o'zgarishlari. Suyak va to'qimalaridagi o'zgarishlar harakterli bo'ladi. Suyaklar deformasiyaga uchragan. Yupqalashgan yoki (osteoskleroz) bo'ladi. Naysimon suchklarda bo'shliq kattalashgan, ularning devori yupqalashgan, ba'zi kasallik oqibatida o'lgan hayvonlarda ba'zan suyaklar devori teshikchalari ochilib qolgan bo'ladi. Ko'krak qafasining shakli o'zgargan bo'lib, uning ichki tomonida qovurg'alar sternal uchlarining ovalsimon qalinlashishi, ba'zan sinishlar, suyak mozollari paydo bo'lishi aniqlanadi. Bo'g'inlar ayniqsa paylar birikadigan joylari qalinlashgan, ba'zan paylarning suyaklardan ajralib ketishi (buqalar ikkilamchi osteodistrofiyasi), bo'g'in yuzasida nekrozlar, yaralar qayd etiladi. Dum umirtqalari orasidagi bo'shliq kengaygan, oxirgilarida osteolizis kuzatiladi.

Tashxisi. Rasion taxlil qilinganda, uning tarkibi, hayvonlarning asosiy oziqaviy va biologik faol moddalarga bo'lgan extiyojlarining qondirilishi, kalsiy – fosfor nisbatlari aniqlanadi.

Kasallikning ertachi diagnostika qilish uchun I.G.Sharabrin usuli S.A.Ivanovskiy modifikasiyasi bilan beshinchi dum umirtqasida rentgenofotometriya, katta kadrli flyurografiya, ultratovushli exoosteometriya kabi usullar bilan suyaklarning zichligi va minerallanish darajasi aniqlanadi. Alimantar ikkilamchi va enzootik osteodistrofiyalarni bir-biridan farqlash lozim.

Kechishi va prognozi. O'z vaqtida sabablari yuqotilib, davolash o'tkazilganda kasal hayvon 2-3 haftada sog'ayadi. Og'ir kechganda va davolash kechikanda kasal hayvon sekin 12 oy yoki undan ham uzoq vaqtda sog'ayadi.

Lekin umirtqaning qiyshayishi, dumning surilishi, ko'krak qafasining deformasiyasi va qovurg'alarning qalinlashishi belgilari saqlanib qoladi.

Davolash. Organizmga suv va oziqalar orqali asosiy oziqaviy moddalarning yetarli darajada tushmasligi oqibatida kelib chiqqan osteodistrofiyalarni davolashda kasal hayvonga hoxlagancha miqdorda beda yoki har xil o'tlar pichani, sifatli silos, ildizmevalar beriladi, konsentrat oziqalar berish ko'paytiriladi. Kalsiy va fosforning qo'shimcha manbai sifatida oziqabop fosfatlar, suyak, go'sht – suyak uni, kavshovchilarga diammoniyfosat, fosfat mochevina beriladi. Rasionda yetishmaydigan mikroelementlarning tuzlari, A va D vitaminlarning yog'li konsentratlari, baliq yog'i yoki mikrogranullangan vitaminli preparatlar qo'llaniladi.

Falaj yoki qaltiroqlar kuzatilganda katta hayvonlarga 10 % li kalsiy xlorid eritmasidan 400 ml gacha, 10 % li magniy sulfat eritmasidan 100 ml vena qon tomiriga yuboriladi, yoki 25 % li magniy sulfat eritmasidan 100-150 ml gacha muskul orasiga inyeksiya qilinadi. Glyukoza eritmalari vena qon tomiriga 0,2-0,4 g/kg miqdorida yuboriladi yoki 300-500 g qand og'iz orqali ichiriladi. D₃ vitaminini endogen hosil bo'lishini yaxshilash uchun ochiq havoda yayratish yoki ultrabinafsha nurlarining sun'iy manbalaridan foydalaniladi.

Ikkilamchi osteodistrofiyani davolashda asosiy kasallik hisoblangan ketozning sabablari yo'qotiladi. Davolash tadbirlari kompleks tarzda tashkil etilib, ketost aralashmasi 30-40 kun davomida konsentrat oziqalarga aralashtirilgan holda qo'llaniladi.

Profilaktikasi. Uzoq muddat silos – jom yoki silos – konsentrat tipda oziqlantirishga yo'l qo'yilmaydi. Rasionda pichanlar va konsentrat oziqalar yetarli darajada bo'lishi lozim. Kovshovchi hayvonlar rasionidagi kletchatka miqdori quruq moddasining 18 % ni tashkil etishi, fosfor –kalsiy nisbati katta yoshdagi hayvonlar uchun 1,5-2 buzoqlar uchun 1,-2 bo'lishi lozim. Rasionni boyitish maqsadida makro – va mikroma'danlarning preparatlari rasionda ularning yetishmovchiligini hisobga olgan holda qo'llash tavsiyanomalariga asosan qo'llaniladi. Tarkibi diammoniyf osfat, natriy sulfat, natriy xlorid, kobalt xlorid, rux sulfat, mis sulfat, kaliy yodid va trivitamindan iborataralashmalarni qo'llash tavsiya etiladi.

Mikroma'danlarning organizmdagi ahamiyati.

Hayvon organizmida nazorat qilishi zarur yuo'lgan mikroma'danlarga temir, mis, rux, kolbalt, marganes va yod kiradi. Ushbu unsurlarning yetishmasligi yoki ular miqdorining ortiqchaligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarga endemik kasalliklar (hayvonlarda enzootik kasalliklar) deb ataladi. Enzootik kasalliklar asosan ma'lum biogeokimyoviy hududlarda uchraydi. O'zining tuprog'i, suvi va o'simliklarning tarkibida hamda kuzatiladigan kasalliklarning turlari bo'yicha bir-biriga o'zaro o'xshash bo'lgan hududlarga biokimyoviy1 hududlar deyiladi.

Xususan, O'zbekiston respublikasi hududida yod yetishmovchiligi, misetishmovchiligi va boshqa biokimyoviy hududlar mavjud (M.A.Rish, 1979).

Nisbatan ko'p uchraydigan enzootik kasalliklarga enzootik osteodistrofiya, temir tanqisligi kamqonligi, gipokobaltoz, misetishmovchiligi, rux yetishmovchiligi, yod yetishmovchiligi, selen yetishmovchiligi, ftor yetishmovchiligi, ftorning ortiqchaligi, molibdenning ortiqchaligi va boshqa kasalliklar kiradi.

Enzootik kasalliklarga aniq tashxis qo'yish va ularga qarshi samarali davolash va oldini olish choralarini ishlab chiqish va o'tkazish, avvalo, har bir mikroma'danning organizmdagi ahamiyati, uning modda almashinuvidagi o'rni va boshqa jihatlarni o'rganish va e'tiborga olishni taqoza etadi.

Enzootik osteodistrofiya. A.A.Kabısh (1950-1967) ma'lumotlariga qaraganda janubiy Ural hududida osteodistrofiyaning asosiy sabablari tuproq va oziqa tarkibida marganes va kobaltning yetishmovchiligi hamda nekil, magniy, stronsiy va bariy miqdorining ortiqchaligi hisoblanadi. Boshqirdistonning Ural regionida enzootik osteodistrofiyaning etiologiyasida oziqa va suvda yod, kobalt, rux, mis, marganes va molibden miqdorining me'yordan pastligi hamda xrom, nikel va vadaniy miqdorining yuqoriligi asosiy rol o'ynaydi (S.I.Ivanovskiy, 1978).

L.G.Zamarin, N.A.Urazayev, Ye.F.Dымko va boshqa qator olimlar enozootik osteodistrofiyaning rivojlanishida yod tanqisligining katta rol o'ynashini ta'kidlashganlar.

Temir tanqisligi patologiyasi.

Temir hayvon tanasida 45 mg/kg, gem tarkibida – 65 %, qonda 30-58, qon zardobida 0,11-0,20 mg % ni tashkil etadi.

Ichak shilliq qavvatida hosil bo'ladigan spesifik oqsil apoferritin moddasi temirning ichak membranasi orqali shimilishi ta'minlanadi. Bu oqsilning ichak shilliq pardalaridagi miqdoriga nisbatan kam, chunki temir qonga juda kam miqdorda suriladi. Bunday chegaralanishning biologik ahamiyati shundan iboratki, hayvonlar ortiqcha temirni ishlab chiqarib yuborishga qodir emas.

Temir ingichka ichaklardan jigarga o'tadi va ferritin tarkibiga kiradi. Qolgan qismi qizil illikga o'tadi va gem sintezida ishtirok etadi. taloqdagi gemosiderin oqsili tarkibida ham asosan temir moddasi saqlanadi.

Jigar, taloq va orqa miyada temir ferritin holda to'planadi (V.I.Georgiyevskiy va b., 1979).

Yosh hayvonlarda ayniqsa cho'chqa bolalarida temir tanqisligi oqibatida alimentar anemiya kasalligi rivojlanadi va bu kasallik juda og'ir o'tib, kasal hayvonlarning nobud bo'lishi bilan harakterlanadi.

Katta yoshdagi hayvonlarda temir tanqisligi yoki og'ir o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi, yoki eritrositlarning parchalanishidan hosil bo'lgan porfirin moddasi tarkibidagi temir qaytadan gemoglobin sintezida ishtirok etadi.

Temir to'qimalar va qon tarkibida to'planganligi sababli organizm tomonidan to'liq o'zlashtiriladi. Kuniga 20 l sut beruvchi sigirlar kuniga sut orqali 6-12 mg temir ajratib chiqaradi. Temir tanqisligining tipik belgisi gipoxrom mikrositar anemiya hisoblanadi (R.Bartko, 1963).

Kobalt tanqisligi patologiyasi.

Kobalt oshqozon – ichak kanalida qiyin suriladi. So'rilgan kobaltning asosiy qismi siydik bilan tashqariga chiqib ketadi. Kobalt V_{12} vitamini bilan birikkan holda jigarda to'planadi va uning ma'lum qismi bo'yraqlarida depo

holida saqlanadi. Kobalt taloq, oshqozon osti va buyrak usti bezlarida ham qisman to'planadi.

Kobalt yetishmasligi gemapoez va oshqozondagi to'yimli moddalarning so'rilish jarayonining buzilishi, o'sishdan qolish, maxsuldorlik va pushtdorlikning pasayishiga olib keladi.

Kobalt tanqisligi oqibatida kelib chiqadigan V_{12} gipovitaminoz paytida folat kislotasining o'zining metabolik faol shakli hisoblangan tetragidrofolat kislotasiga aylanishi qiynlashadi. Natijada, eritroblastlar va normoblastlarda DNK sintezi buziladi. Ularning buzilishi va yetilishi kechikadi va uning oqibatida normoblastik eritropoez megaloblasttik shaklga o'tadi. Kobalt azot almashinuvi, nuklein kislotalari, uglevodlar va ma'danlar almashinuviga ta'sir ko'rsatadi.

Kobalt osteogen mikroma'dan hisoblanadi, uning tanqisligi oqibatida gipokobaltoz, osteodistrofiya, anemiya, jigar steatozi va boshqa kasalliklar paydo bo'ladi (Shreder R.Ye., Yevrerson J.A., 1967).

Kobalt miqdori 2,5 dan 5 mkg %, qon plazmasida 0,5 dan 0,7 %, sutdagi miqdori – dan 4 mkg % gachani tashkil etadi. Kobalt miqdorining kamayishi gipokobaltoz, V_{12} gipovitaminoz, alimentar osteodistrofiya, enzootik osteodistrofiya, urov kasalligi paytlarida kuzatiladi.

Mis tanqisligipatologiyasi.

Mis ingichka ichakning oldingi bo'limlarida so'riladi. Bu ma'danning jigardagi miqdori o'rtacha 5 mg %, qondagi miqdori 0,1 mg % ni tashkil etadi.

Mis bevosita gemopoezda ishtirok etadi va bu yerda temirning gem tarkibiga kiritilishi katalizlaydi, eritrositlar yetilishini ta'minlaydi, osteogen ma'dan hisoblanadi. Mis saqlovchi oqsil hisoblangan seruloplazmin tarkibiga kiradi. Mis sitoxromoksidaza, tirozinaza, ureaza va boshqa bir qancha fermentlar tarkibiga kiradi (V.T.Samoxin, 1981).

Mis tanqisligi paytida hayvon qonidagi gemoglobin miqdori o'zgarmagan holda eritrositlar soni kamayadi. Mikrositlar gipoxrom animiya (eritropeniya kuzatilmaydiga) kuzatiladi (A.I.Fedorov, M.S.Jakov, I.M.Karput va boshqalar, 1986).

Mis elementlarining oziqa bilan kam miqdorlarda tushishi oqibatida qo'zilarida "enzootik ataksiya" kasalligi rivojlanadi. (Bakirov B.B, Habiyev M.S., 1993).

Qondagi mis miqdori yirik shoxli hayvonlarda o'rtacha 75 mk % (0,75 mg/l), qo'ylarda – 20-50 kg % (0,2-0,5 mg/l) atrofida bo'ladi. Qo'ylar qonida mis miqdorining o'rtacha 15-20 mg % dan past bo'lishi kasallikning rivojlanayotganligini bildiradi. Yirik shoxli hayvonlarda giprokuproz kasalligi qondagi mis miqdorining 0,5-0,8 mg/g va undan past bo'lgan paytlarda kuzatildi. Mis va molibden o'zaro nisbatining 10/1 bo'lishi oziqa tarkibidaga

sulfatlar miqdori 0,1-0,2 % (quruq moddaga nisbatan) bo'lgan paytlari uchun me'yoriy ko'rsatgich hisoblanadi (V.Barey, P.Bartko va boshqalar. 1986).

Marganes tanqisligi patologiyasi.

Organizmga tushadigan marganes ingichka ichaklarda so'riladi va jigarda (0,17 % gacha) depolanadi. Qonda transferrin oqsili bilan birikkan holda uchraydi. Miya hujayralari, sut bezi, oshqozon osti bezi va muskullarda ham uchraydi.. ishqoriy fofataza, arginaza, piruvatkarboksilaza, oksalsetat karboksilaza, tiaminaza, dezoksiribnoukleaza va yenolaza fermentlarini faollashtiradi.

Fosforlar bilan boradigan oksidlanish hamda sirka kislotasi, yog' kislotasi va xolesterindan yog'lar hosil bo'lishi jarayonlarida ishtirok etadi. Glikogen va mukopolsaxaridlar sintezi uchun zarur bo'lgan boshlang'ich moddalarning sentizlanish jarayonlariga ta'sir kursatadi. Rux va mis ma'danlari bilan birga yuborilgan paytlarda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Marganisning qondagi miqdori o'rtacha 2,0-2,5 mkg % atrofida bo'ladi. Enzootik osteodistrofiya kasalligi va ushbu unsurlarning o'zining oziqa bilan kam tushgan paytlarida bu ko'rsatgichning miqdori pasayadi.

Marganisning yetishmovchiligi suyak hosil bo'lishining, tuxum puchog'i mustahkamligining susayishi, ataksiya, falajlar, urg'ochi hayvonlarda estrusning susayishi va murug'lanishiga sabab bo'ladi. Erkak hayvonlarda urug'donlar degenerasiyasi kuzatiladi. Parrandalarda peroz (qirsildoq bo'g'in)

oyoq va qanot suyaklari deformasiyasi. Inkubasiya oxirida embironning halok bo'lish hollari ro'y beradi.

Rux tanqisligi patalogiyasi.

Hozirgi paytda tarkibida Rux saqlovchi 70 dan ortiq ferment ma'lum. Rux karobongidraza, karboksilaza, ishqoriyfasfataza, neytral proteaza, buyrak dipeptidazasi, glyuamatgedrogenaza va boshqa fermentlar molekulalarning tarkibiga kiradi.

O'zlashtirilgan rux qon bilan birgalikda jigar, taloq va oshqozon osti beziga o'tadi va depo holda to'planadi. Ushbu ma'dan ko'zning tomir turli pardalari va suyaklar va tuyoqlarda eng ko'p tuplanadi.

Qondagi rux miqdorining 75 % ga yaqini, eritrositlarda, 22 %i plazmada va 3 % leykositlarda saqlanadi.

Rux eritrositlar tarkibiga karbonat angidritni biriktirish va ajralib chiqishini boshqaradigan ferment tarkibiga kiradi. Rux qo'shimcha jinsiy bezlar va urug' hujayralari sekretining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ko'pchilik hayvonlarda oshqozon osti bezining Langergans orolchalarida to'planadi va insulin bilan birikma hosil qiladi. Rux tiroksin bilan bog'liq holda faoliyat ko'rsatishi ham mumkin. Kavshovchi hayvonlarda oshqozon oldi bo'limlari va ko'r ichak, otlarda ko'r va yonbosh ichaklar cho'chqa va chuyonlarda ko'k ichak mikroflorasining faoliyati oziqa tarkibidagi rux miqdoriga bevosita bog'liq.

Organizimda ruxning yetishmovchiligi oqsillar, uglevodlar, lipidlar va ma'danlar almashinuvining buzulishlari, oqsil sentizining susayishi, hayvonning o'sish va rivojlanishdan qolishi, jinsiy yetilishning kechikishi, urug'donlar rivojlanishining susayishi, urug' hujayra hosil bo'lishining to'xtashi va jinsiy moyillikning susayishi belgilari bilan namoyon bo'ladi.

Bug'oz hayvonlar rasionida ruxning me'yordan kam bo'lishi xomila rivojlanishining buzilishi va nimjon bola to'g'ilishiga olib keladi (I.P.Kondrazxin 1989).

Yod tanqisligi patologiyasi

Yod troksin gormonining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va organizmda kechadigan deyarli barcha metobolik jarayonlarda ishtirok etadi. Hayvonlarning yodga bo'lgan kunlik talabi (oziqadagi har bir kg quruq modda hisobiga) o'rtacha 0,4 mg/yeg ni tashkil etadi.

Oziqa, suv va mineral moddalar tarkibida organizmga tushgan yod oshqozon va ichaklarda yoditlar ($K_1 Na_1$) ga aylanadi va qonga so'riladi. Yodidlar qalqonsimon bezda oksidlanadi va molekulyar yodga aylanadi. Oksidlanish jarayoni peroksidazalar ishtirokida amalga oshadi. Yodidlarning qalqonsimon bezga tushishi va molekulyar yodga aylanishi gipofiz tireotrop gormoni tamonidan stimullanadi.

V.I.Beryoza (1973), L.G.Zamarin va boshqalar (1982) ma'lumotlariga qaraganda, yod yetishmovchiligi yodning tuproqdagi miqdorining 0,00001

%(0,1 mg/l) va ichimlik suvida 10 mk/l past bo'lgan hududlarda uchraydi. Hayvonda yod yetishmovchiligi uning suvdagi miqdorining 2 mk/l oziqadagi miqdorining 0,06-0,25 mg/l (oziqa quruq moddasiga nisbatan) dan past bo'lgan paytlarda kuzatilgan.

Yilning seryog'in yoki qurg'oqchilik yeklishi, hayvonlarni uzoq muddatlar davomida sulii, zog'ora, raps, karam, lavlagi, bryukva, turneps, nuxat, qashqar beda kabi tarkibida tireostatik qobiliyatga ega bo'lgan tiosinatlarni saqllovchi oziqalar bilan oziqlantirlar ham hayvonlarning, ayniqsa yosh hayvonlarning bo'qoq kasalligi bilan yoppasiga kasallanishiga sabab bo'ladi.

Selen tanqisligi patologiyasi.

Selen va selen birikmalari selenit va selenatlar shaklida 12 barmoqli ichakda so'riladi. Kavsh qaytaruvchilar katta qorinda qiyin eriydigan selen birikmalari hosil bo'lishi mumkin.

Selenning o'zlashtirilishi rasionning tarkibi, oqsillarning birikmalarining bor yoki yo'qligiga bog'liq bo'ladi.

Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda o'zlashtirilgan selenning bir qismi katta qorindagi mikroflora ta'sirida selenosistin va selenometioninga aylanadi va qonga o'tadi. Selen yog' to'qmasidan barcha to'qmalar tarkibida uchraydi, ko'pchilik biologik jarayonlarda ishtirok etadi, kuchli antioksidant hisoblanadi. Selen saqllovchi glutatioperoksidaza fermenti peroksidlar bilan kuchli

birikmalar hosil qiladi va ularning xujayralarida to'planishini bartaraf etadi. Tarkibida selen saqllovchi selenoproteidlar tokoferolni tashishda ishtirok etadi. Selen ma'dani Ye vitamin bilan birikganda to'yinmagan yog' kislatolarining oksidlanishini oldini oladi.

Ye vitamin kuchli antioksidant sifatida to'qimalarda peroksidlar hosil bo'lishini susaytradi, selen esa glutathionperoksidaza tarkibiga kirib, ushbu peroksidlarni parchalaydi.

Selen tanqisligi paytida organizmning Ye vitamanga bo'lgan talabi oshadi, tokoferol tanqisligi esa o'z navbatida, organizmning selenga bo'lgan talabini yanada oshiradi.

Selen yetishmagan paytlarda uglevodlar, lipidlar va oqsillar almashinuvi buziladi, to'qimalarda chala oksidlangan moddalar to'planadi, jigar infiltrasiyasi va distrofiyasi rivojlanadi. Skelet va yurak muskullarida strukturaviy buzilishlar ro'y beradi. Jinsiy bezlar distrofiyaga uchraydi. Glutathion peroksidaza va amilaza fermentlari faolligi pasayadi, LDG va AsAT fermentlari faolligi va yirik dispersli oqsillar hisoblangan alfa- va betoglobulinlar miqdorining oshishi kuzatiladi.

Molibden organizm uchun zarur bo'lgan unsurlardan hisoblanadi. Uning surilishiga rasionda mis va sulfatlar miqdorining ortiqchaligi katta to'sqinlik qiladi. Hayvonlarda molibden toksikoz ko'p uchraydi va bu kasallik kuchli diareya. Anemiya, jun rangidang oqarishi va oriqlash belgilari bilan namoyon bo'ladi.

**Sog'lom hayvonlar qonidagi mikroma'danlar almashinuvinig
ko'rsatgichlari**

1-jadval

Ko'rsatgichlar	O'lchov birligi	Hayvon turi				
		Qoramol	Qo'y	Cho'chqa	Ot	Parranda
Mis (qondv)	Mkg %	90-110	50-70	-	35-45	50-70
	Mkmol/l	14,1-17,3	7,9- 11,0	-	5,51- 7,08	7,9-11,0
Kobalt (qonda)	Mkg %	3,0-5,0	3,0-5,0	2,5-5,0	2,5- 5,0	2,0-3,0
	Mkmol/l	0,51-0,85	0,51- 0,85	0,43-0,85	0,43- 0,85	0,36-0,51
OBY (qonda)	Mkg %	4-8	4-8	4-6	2-4	-
	Mkmol/l	315-630	315- 630	315-630	157,5- 315	-
Marganes (qonda)	Mkg %	15-25	2-8	2-10	-	-
	Mkmol/l	2,73-4,55	0,36- 1,45	0,36-1,82	-	-
Rux (qonda)	Mkg %	300-500	80-100	300-400	-	-
	Mkmol/l	47-76	12-15	47-62	-	-

2-jadval.**Hayvonlarning mikroma'danlarga bo'lgan talablari.**

Ko'rsatgichlar	Sog'in sigirlar (1 o/b his)			6 oylik buzoqlar (tana vazni 120-130 kg, 1 kunda)	12 oylik buzoqlar (tana vazni 210-220 kg, 1 kunda)	Bug'oz qorako'l sovliqlar (1 kunda)	Emiz. Ona cho'chq a (150- 160 kg, 1kunda)
	Kuniga 10 l sut beruvch i	Kuniga 20 l sut beruvch i	Kuniga 20 l sut beruvch i				
Temir, mg	80	80	80	210	325	1250	560
Mis,mg	8	9	10	28	43	14,0	80
Rux,mg	55	60	65	170	245	50	420
Kobalt,mg	0,6	0,7	0,8	2,5	3,5	0,5	8,0
Marganes, mg	55	60	65	150	270	80	230
Yod,mg	0,7	0,8	0,9	1,0	1,5	0,6	1,5

IV. VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH

O'zbekiston Respublikasi «Veterinariya to'g'risida»gi qonunning 10, 11, 12 va 13-moddalarida ta'kitlanganidek, xo'jaliklar va hosodorlik jamiyatlarida idoraviy yoki ishlab chiqarish veterinariya xizmatijoriy etilgan bo'lib, tegishli tuman veterinariya tarkibiy qismi hisoblanadi. Xo'jaliklarda veterinariya xizmati veterinariya vrachi va veterinariya feldsheri tomonidan amalaga oshirilib, mazkur xo'jalik ishlarida faoliyat kursatadi.

Xo'jalikdagi veterinariya mutaxassislari quyidagilarni amalaga oshiradila:

- Xo'jalik ma'muriy va boshqa mutaxassislari bilan xamkorlikda chorva mollarining tuyog'ini ko'paytirish, mahsulot va xomashyo ishlab chiqarish miqdorini oshirish;

Xo'jalikda mavjud hayvonlarning doimiy ko'rikdan o'tkazish, rejalashtirilgag profilaktik va veterinariya sanitariya tadbirlarini amalaga oshirish, kasal mollarni aniqlab ajratish va davolash;

- Xo'jalikda O'zbekiston Respublikasi «Veterinariya to'g'risida»gi qonuniga rioya qilishni ta'minlash;

- Xo'jalik ishlab chiqarish rejalarni bajarishga muvofiq faoloyat ko'rsatish;

- Aholini zooantropoonozlardan mahofaza qilish.

Xo'jalik va hiscadorlik jamiyatlarda veterinariya mutaxassislarining shtatlarini belgilanishi:

Jamoadi, shirkat va fermer xo'jaliklarida hamda hissadorlik jamiyatlarida veterinariya xizmati mazkur xo'jalikning bosh yoki kata veterinar vrachi tomonidan tashkil etilib, u ma'muriy xo'jalik masalalari bo'yicha xo'jalik raxbariga, barcha mutaxassislik masalalari bo'yicha esa tuman davlat

veterinariya bo'limiga bo'ysinadi. Shuningdek, ayrim xo'jalik, boshqarma yoki vazirliklar qaromog'ida bo'lsa, mazkur xo'jalik bosh yoki katta veterinariya vrachi tegishli yuqori tashkilot veterinariya mutaxassisiga ham bo'ysunadi.

Xo'jalikda xizmat qiladigan boshqa veterinarii mutaxassislari esa xu ho'jalikning bosh yoki kata veterinar vrachiga boysunadi.

Xo'jaliklarda veterinariya xizmatining shtat sonini aniqlash uchun bevosita mavjud mollarning shartli bosh sonlari hosoblab chiqilib, keyin belgilanadi.

Veterinariya qonunchiligiga aossan, xo'jaliklarda mavjud mollar shartli bosh soni 800 boshgacha bo'lsa, katta veterinariya vrachi, 800 shartli mol boshidan ko'p bo'lsa, bosh veterinariya vrachi joriy etiladi. Shuningdek, keyingi 750-800 bol boshiga 1-ta dan veterinariya vrachi yovi veterinariya feldsherlik shtati velchilanadi.

Hayvonlarning shartli mol boshiga aylantirish uchun mazkur xo'jaliklar soni normativlar asosida bergilangan koyeffisiyentlarga ko'paytib aniqlanadi: masalan: 1 bosh sigir – 1 shartli bosh; 1 bosh buqa – 1 shartli bosh; 1 bosh yosh qoramol – 0,86; yilqi va tuya – 0,66; cho'chqa – 0,16; qo'y – 0,1; tovuq – 0,002.

Xo'jalik raxbarlari maxaliy sharoit, epizootik ahvol va ferma xususiyatini hasobga olib, qo'shimcha shtat verishi mumkun.

Naslchilik xo'jaliklari uchun esa hisoblangan shartli mol boshini 1,4 koyeffisiyentga ko'paytiriladi. 850 emas, balki 600-610 shartli mol boshiga 1 veterinariya shtati velgilanadi.

Chovachilik va parrandachilik hissadorlik jamiyatlariga esa mavjud shtatlar jadvalidan foydalanib, veterinariya mutaxassislarning shtatlari belgilanadi.

Veterinariya Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy hayotda bozorni iqtisodiyotga o'tish sharoitida oshirilayotgan barcha islohotlarning asosiy maqsadi mavjud imkoniyatlar va intellektual salohiyatni safarbar etib, qishloq xo'jaligida, xususan chorvachilikda mahsulotga xom-ashyo ishlab chiqarish sur'atini oshirishda, hayvonlarning salomatligi va davlatimiz hududining epizootik sog'ligini ta'minlashda yuqori malakali va iqtisodiy samara beruvchi veterinariya xizmatini tashkil etish hamda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayvonlarni yuqumli kasalliklarni yo'qotish rejalarini ishlab chiqishda veterinariya mutaxassislari yoki veterinariya mutaxassislarining komissiyasi, hayvonlarni joylashtirish, ularni saqlash texnologiyasi, oziqlantirish, ularni saqlash texnologiyasi, oziqlantirish darajasi va sharoiti, podani to'ldirish holati, barcha binolar va binolar hududining veterinariya-sanitariya holati, epizootik vaziyat (kasallikning tarqalish darajasi, kasallanishga shubha qilinadigan hayvonlarning soni) chuqur o'rganiladi.

Rejada karatin – chegaralovchi, tashkiliy xo'jalik, veterinariya-sanitariya, zoogigiyenik va maxsus choralarning majmui ko'zda tutilib, bajarish muddati va bajaruvchi ma'sul shaxs ko'rsatiladi.

Reja har bir aholi yashaydigan punkti, bo'lim yoki fermadagi yuqumli kasalliklarni tugatish muddati hisobga olinadi.

Iqtisodiy reja tuman hokimiyati tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. shunday keyingina huquqiy kuchga kiradi va uni shartdir. Bunday rejani bajarishdan bosh tortadigan yoki rahbar shaxslar Veterinariya qonunchiligi buzuvchilar hisoblanadi va belgilangan tartibda javobgarlikga tortiladi.

Tuberkulyoz (sil)ni tugatish rejasini ishlab chiqishda unga diagnostik tekshirishlar, umumiy oldini oluvchi, tashkiliy xo'jalik va boshqa tadbirlar qo'shilishi mumkin. Ularning taxminiy sanog'i quyida keltiriladi:

- oziqalarni yerga tushirishga yo'l qo'ymaslik;
- go'ng chiqarish uchun ishlatiladigan ulovlarda fermalarga oziqa keltirish man etish;
- mollar fermaga kirish joydagi va uning hududiga kelishdagi dezobaryerlar, veterinariya-sanitariya to'siqlarini doimiy ishlab turishini ta'minlash;
- begona kishilarning, ayniqsa tuberkulyozdan sog'lom bo'lmagan xo'jalikdan kelgan kishilarning fermaga va yozgi lagerga kishini ta'minlash;
- tuberkulyoz bilan kasallangan kishilarning fermada xizmat qilishini ta'minlash;
- fermaning ishchilarini qo'shimcha miqdorda maxsus kiyim boshlar, etik va shaxsiy gigiyena buyumlari (yuvinish idishi, sovun, sochiq va boshqalar) bilan ta'minlash;
- xo'jalik, qo'shni xo'jalik va tumanning epizootik holatini o'rganish;
- hayvonlardagi allergik reaksiyasining dinamikasi va natisini tahlil qilish;
- tuberkulinga reaksiya beradigan hayvonlarni so'ygandan keyin ko'rib chiqish;
- zarur bo'lgan gistologik, bakteriologik va biologik tekshirishlar o'tkazish;
- xo'jalikda tuberkulinga ijobiy reaksiya beradigan va kasallikning klinik belgisi namoyon bo'lgan hayvonlar so'yish maydonida so'yiladi;

- tuberkulinga reaksiya bermaydigan hayvonlarda har 30-45 kundan keyin ketma-ket ikki marotaba 3 oy oralig'ida tuberkulinizatsiya o'tkazish, ularni oldini oluvchi nazoratga qo'yish;

Sutni pasterizasiya va qaymog'i olingan sutni qaynatishni tashkillashtirish;

- tuberkulinga reaksiya bermaydigan sigirlarning suti yoki onasining qaymog'i olingan suti (obrat)dan ichirish;

- ikki oylik buzoqlarga teri ichkarisiga tuberkulinizasiyalash;

- tuberkulinga ijobiy reaksiya bergan buzoqlarni ajratib qo'yish, keyinchalik ularni semirtirib so'yishga topshirish;

- tuberkulinga reaksiya bermagan buzoqlarni ikki marotaba 30-45 kun oraliq va 3 oydan keyin yana tuberkulinizasiyalash;

- fermalararo, ferma ichkarisida mollarni qayta guruhlashni, shuningdek, sog'lomlashtiriladigan podani keltirilgan hayvonlar yoki xo'jalikda o'stiriladigan hayvonlar bilan to'ldirishni man etish;

- hayvonlarni har marotaba tuberkulyozga tekshirgandan keyin barcha chorvachilik binolarni ichi natriy va formalik aralashmasining 3 % li eritmasidan foydalanib dezinfeksiyalash;

- kasal hayvon saqlangan chorvachilik binolarning tuprog'ini tozalash va hayvonlarni sanitar ta'mirlash;

- chorva xodimlari uchun veterinariya-sanitariya bilimlarini, ayniqsa, odamlar va hayvonlar tuberkulyozning oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishni tushintirish.

Reja loyihasini tayyorlashda komissiya tarkibiga tumanning bosh veterinariya laboratoriyasining direktorii, xo'jalikning rahbari, bosh

veterinariya vrachi va bosh chorvadorlar kiritiladi. Belgilangan vaqt o'tganidan keyin tuman hokimiyati tasdiqlangan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha tekshirish o'tkaziladi. Xo'jalik rahbarining hisoboti tinglanadi va zarur bo'lsa yangidan qaror qabul qilinadi. Bunda rejaning qo'shimcha tadbirlar va uni amalga oshirish muddatlari belgilanadi.

O'tkir yuqumli kasalliklardan sog'lom bo'lmagan xo'jaliklar va aholi yashaydigan punktlarda majburiy va tezkor tadbirlar tashkillashtiriladi va amalga oshiriladi. Diagnostika qo'yilgandan so'ng birdaniga o'tkir o'tuvchi inyeksiya (oqsil) ning uchog'ini tugatishni tezkor rejasi ishlab chiqiladi. Tezkor rejaning maqsadi o'tkir yuqumli kasallikning uchog'ini o'rab olish, uni tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, qisqa muddat ichida uni tugatish, podani, xo'jalikni va joylarni sog'lomlashtirishdan iborat.

V. EKOLOGIK MUAMMOLARNING YORITILISHI

VA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

Xozirgi kunda ekologiyani asrash, global muommolardan biri xisoblanmoqda. Shuning uchun tabiatni muxofaza qilishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Respublikamizda xam ekologiyani buzilishini oldini olish tabiatni asrash, tabiat boyliklaridan nematlaridan extiyotkorona foydalanish maksadida ahamiyatga ega katta ishlar kilinmokda.

Xar kandy davlatning mavkeyi, uning axolisining farovonligi, turmush tarzining yaxshi bulishi, odamlarining sog'lom xayot kechirishi, uzoq umr kurishi, farzandlarining sog'lom tugilishi, sog'lom voyaga yetishi va yashashi, xar xil odamlar va xayyovonlarga xos bulgan kasalliklarning xam tarkalishi tabiat, ekologiya bilan boglik va shu davlatda tabiatni muxofaza qilishning qay darajada yulga qo'yilganligiga bog'liq.

Mamlakatimizda bu masalalarga albatta mustakillikka erishganimizdan sung katta e'tibor berilmokda.

Respublikamizda tabiatni muxofaza qilish tugrisida konunlar. Karorlar qabul qilindi va bu qonun , qarorlarning ijrosi ta'minlandi.

Jumdalan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50,54,55 va 100 - moddalarida fuqarolarning tabiatni muxofaza qilishning g'uquqiy asoslari belgilab qo'yildi.

Konstitusiyamizning 50-moddasida "Fuqarolar atro-muxitga nisbatan extiyotkorona munosabatda bulishiga majburdirlar"deb yozilgan.

Konstitusiyamizning 54-moddasida "“Mulkdor mulkiga o'z hohishiga egalik qiladi. Undan foydalaniladi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanishda ekologik muxitga zarar yetkazmasligi fukarorlar, yuridik shaxslar va davlatning xukuklarini xamda qonun bilan qo'riklanadigan manfaatlarini buzmasligi” shart deb yozib kuyilgan.

Konstitusiyamizning 55-moddasida esa “Yer osti boyliklari. Suv, usimliklar va hayvonot dunyosi xamda boshqa tabiiy zaxiralar umum milliy boyliklar ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir” yozib qo’yilgandir.

O’zbekistonda tabiatni muxofaza qilish siyosatini va nazoratini, qonunlarini, O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ishlab chiqadi. Bu konunlar ijrosini Vazirlar Maxkamasi amalga oshiradi.

Mehnat xavfsizligi ishlarini tashkil etishdagi mutaxassis va rahbar shaxslarning huquq va vazifasi. Korxonalar ma’muriyati va muxandis-texnik xodimlarining asosiy vazifalari mehnat haqidagi qonunlar majmui hamda «Xavfsizlik yo’llari va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari» bilan belgilanadi. Ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarini kamaytirish hamda ularning oldini olishga oid mehnat muhofazasi bo’yicha ishlarni amalga oshirish, tadbirlariga umumiy rahbarlik hamda bu ishga javobgarlik xo’jalik rahbari, uning o’rinbosari - bosh muxandis zimmasiga yuklatiladi.

Xo’jalik rahbari - ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarining oldini oluvchi tashkiliy texnik tadbirlarni rejalashtirishga, mablag’ bilan ta’minlashga, shartnoma bitimlari talablarini bajarishga, mehnat va dam olish tartibi, hamda ayollar va o’smirlarga talab darajasidagi ish bilan ta’minlashga, kasaba uyushmasi texnik nazoratchilari va jamoatchi nazoratchilar hamda mahalliy kasaba uyushmasi qo’mitasi komissiyasining mehnat muhofazasiga doir buyruqlarini bajarishga, ishlar va kasblarning ayrim turlari uchun xavfsizlik yo’llari bo’yicha yo’riqnomalarni tasdiqlashga, ishchi-xizmatchiilarni o’z vaqtida amaldagi me’yorlarga muvofiq korjoma, maxsus poyabzal, yakka tartibdagi himoya vositalari va maxsus oziq-ovqatlar bilan ta’minlashga majbur.

Bosh muxandis - hamma sexlar va bo’linmalar boshliqlarining xavfsizlik yo’llari hamda ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qonun chiqaruvchi me’yorlar

va qoidalarini bajarishlarini muntazam ravishda nazorat qilib borish, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish, ukuv urganish ishlarini nazorat qilish, xodimlarni davriy tibbiy ko'riqdan utishlarini, xavfsiz ishlash usullarining ommaviy tadbiq qilinishini, xavfsizlik to'g'risida oid plakatlar va ogohlantiruvchi yozuvlar tayyorlanishini nazorat qilish, kasaba uyushmasi tashkiloti bilan birgalikda ishlab chiqarish sanitariyasi va texnika xavfsizligiga oid ishlarning holatini tekshirish, belgilangan muddatlarda ishlab chiqarishda ro'y bergan shikastlanish to'g'risidagi hisobotlarni, mehnat sharoitini sog'lomiashtirishga ajratilgan mablag'larning sarflanishini nazorat qiladi.

Bosh mexanik, energetik - barcha turda inshootlar va turli uskunalarni hamda bosim ostida ishlaydigan qurilmalarni o'z vaqtida texnik tekshiruvdan o'tkazish va reja asosida tuzatishlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda o'z vaqtida o'tkazilishiga, shuningdek, tuzatish ishlarining xavfsiz bajarilishiga, nazorat qilishga mas'ul.

Mehnat muhofazasi muxandisi - mehnat muhofazasi, xavfsizlik yo'llari va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir ishlarni tashkil qilishga hamda barcha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishga va amalga joriy qilinishi nazorat qilishga javobgar shaxsdir.

Xavfsizlik masalalari bo'yicha muxandis bevosita korxonaning boshlig'i va bosh muxandisga bo'ysunadi. U o'z ishini mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasi, mehnat muhofazasi bo'yicha komissiya, shuningdek, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sanoat-texnik nazoratchilari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

VI. XULOSA VA TAKLIFLAR

To'liqqiyimatli oziqlantirmaslik hisobiga yuz beradigan ayrim o'zgarishlarni o'rganish borasida adabiyot ma'lumotlari taxliliga asoslanib qo'yidagilarni xulosa qilish mumkin.

1. Yetarlik darajada oziqlantirmaslik nafaqat hayvon organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki sohaning iqtisodiy ko'rsatgichlarga ta'sir ko'rsatadi.
2. Yetarlik darajada oziqlantirmaslik hayvonning o'sishini susaytiradi, mahsuldorligini va serpo'shtligini kamaytiradi va bir birlik maxsulot uchun sarflanadigan ozuqa harajatlarini oshiradi.
3. Ratsion to'liqqiyimatsizligi hayvon organizmining chidamliligini susaytiradi va turli xildagi kasalliklar vujudga kelishiga sababchi bo'ladi.
4. Ratsion to'liqqiyimatliligini ta'minlashda oqsilning tarkibidagi eng muhim aminokislotalarni e'tiborga olish zarur.
5. Hayvon organizimida normal fizologik jarayon bo'lishini ta'minlash uchun energiya beruvchi moddalardan tashqari mineral moddalar bilan ta'minlanish darajasini nazorat qilish kerak.
6. Bug'oz sigirlar o'rtasidan past semizlikga ega bo'lsa zarodishning so'rilib ketishi yoki hayvonning bola tashlashi mumkin ekan.

Yuqoridagi taxlillardan kelib chiqib ishlab chiqarishga qo'yidagilarni taklif qilish mumkin: Chorva mollarini sog'ligini ta'minlashda mahsulot miqdorini oshirishda va sifatini yaxshilashda takroriy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda asosiy omil oziqlantirish bo'lganligi uchun, ularga ratsion tuzishda energiya beruvchi moddalardan tashqari mineral moddalar miqdorini va ularning ayrimlarining o'zaro nisbatlarini va turli xildagi biologik aktiv moddalarning yetarlik darajada bo'lishini, bir so'z bilan aytganda rasionning to'liqqiyimatliligini ta'minlash zarur.

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikga erishish ostonasida" Toshkent 2011 yil.
2. Karimov I.A. "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi O'zR Prezidentning PK 308-qarori, 2006 yil 23mart.
3. Karimov I.A. " Shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirish rag'batlantirish kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chikarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PK-842-sonli qarori. Toshkent.-2008 yil 21 aprel.
4. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. "O'zbekiston" 2008.
5. . Karimov I.A Jahon moliyaviyg' iqtisodiy-inqirozi. O'zbekiston sharoitida, uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent. "O'zbekiston" 2009
6. . Karimov I.A Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish,xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustivor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisdagi ma'ruzasi. Toshkent.2011.21 yanvar "Turkiston" gazetasini 2011 yil 22yanvar 7soni.
7. Abdalniyazov B. Vliyaniye kormleniye na molochnuyu produktivnost pervotelok. J. Molochnoye i myasnoye skotovodstvo.1999 6-7 s.16-18
8. Abdalniyazov B. Keltirilgan golshtinlashtirigan kizil cho'l zotli sigirlarning sut mahsuldorligi."Zooveterinariya" jurnali 2010,3 31-33 bet.

9. Akmalxonov Sh.A. Meropriyatiya po razdoyu korov v fermerskix i individulnix xozyaystvax. J.Zooveterinariya, 2010 4 s 27-30.
- 10.** Androsova L.F. Normirovaniye kobalta v rasionax korov na Saxaline J.Zootexniya № 1 (2005)
11. Bakanov V.N., Menkin V.K. Kormleniye sel'skoxozyaystvennykh jivotnykh. Moskva 1989.
12. Berenshteyn Ya.F. Mikroelementy v fiziologii i patologii jivotnykh. Minsk.1966.
13. Bakanov V.N. Kormleniye sel'skoxozyaystvennykh jivotnykh. M. 1989.
14. Bogdanov V.K. Kormleniye sel'skoxozyaystvennykh jivotnykh. Ukraina. 1990g.
- 15.** Bondarev V.A. va boshqalar Povysheniye kachestva kormov iz mnogoletnix bobovykh trav J.Zootexniya № 4 (2010)
16. Basinov O.A. Balans azota kalsiya i fosfor u laktiruyemykh korov J.Zootexniya №5 (2005)
17. Belikova A.S. va boshqalar Vliyaniye belkovovitaminnoy premiksi na kachestvokorovogo moloka J.Zootexniya № (2005)
18. Bakirov B.B. va boshqalar. Qoramollarni uyg'un dispanserlash bo'yicha qo'llanma. Samarqand 2006
19. Bakirov B.B. "5A640106 Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi mutaxassisligi uchun modda almashinish patologiyasi fanidan Leksiyalar kursi" Samarqan 2006
20. Voynar A.I. Biologicheskaya rol mikroelementov v organizme jivotnykh i cheloveka. M.1960.
21. Venidektov A.I. Kormovyye fosfaty v rasionax jivotnykh. M. 1978.
22. Vishnokov S.I. Obmen mikroelementov u sel'skoxozyaystvennykh jivotnykh. M.Kolos. 1967.
- 23.** Volgin V.I. Romanenko L.V. va Fedarova Z.L. J.Zootexniya №2 (2010)

24. Danlevskiy V.M. «Vnutrenniye nezaraznyye bolezni s.x.j.x» M. Agropromizdat, 1991
25. Danlevskiy V.M., Kondrakin I.P. «Praktikum po vn.nez.bol. j-x» M. Agropromizdat, 1983
26. Kondrakin I.P., Kurilov i dr. «Klinicheskaya laboratornaya diagnostika v veterinarii». Uchebnoye posobie, M. Agropromizdat, 1985
27. Kolesov A.N. Chorva mollarining yuqumsiz ichki kasalliklari. Toshkent 1979
28. Jurnal Veiterinariya jurnali Moskva 2000-2005
29. Veterinariya jurnali, Toshkent 2000-2005
30. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiyev B.M. «Hayvonlarning ichi yuqumsiz kasalliklari fanidan amaliy mashg'ulotlar» Samarqand 2002
31. Web-sayt: [www. Vetas.uz](http://www.Vetas.uz) E-mall: zooveterinariya+bail.ru

INTERNET MA'LUMOTLARI